

MEN YASHAYOTGAN OLAM



Atrofimizda qarindosh-urug'larimiz, qo'shnilarimiz, do'stlarimiz, sinfdoshlarimiz yashaydi. Ularning orasida o'zbek, qoraqalpoq, qozoq, tatar, rus, turkman, tojik, qirg'iz va boshqa millat vakillarini uchratishimiz mumkin. Balki, uzoq yurtlardan – Angliya, Fransiya, Germaniya, Xitoydan kelganlar ham bo'lishi mumkin.

Biz ular haqida nimalarni bilamiz?



1. Boshqa viloyatda yoki chet elda yashaydigan do'stlaringiz bormi?
2. Siz ular bilan gaplashib turasizmi? Xat yozasizmi yoki qo'ng'iroq qilasizmi? Yana qanday aloqa vositalaridan foydalanasiz?
3. Boshqa shahar yoki davlatdagи odamlarning hayotida nima sizga qiziq tuyuladi?
4. Siz do'stlaringizga O'zbekiston haqida nimalarni aytib berishingiz mumkin?



Chet elga borsak, u yerda mehmon ekanimiz esimizdan chiqmasligi kerak. Mezbonlarni hurmat qilib, bizga yaratib bergen sharoitlari uchun ularga minnatdorchilik bildirishimiz lozim.

Jamoat joylarida odob saqlab, tartib-qoidalarga riosa qilishimiz shart. Chet elga borishdan oldin u yerda yashaydigan xalqning tilida salomlashish, xayrlashish, rahmat aytishni o'rganib olsak, juda zo'r ish bo'ladi. Bundan tashqari, o'sha yurtning urf-odatlari, tartib-qoidalalarini ham bilib qo'yish kerak.



Qaysidir mamlakatga sayohatga bormoqchisiz. Qanday qilib bu mamlakat haqida oldindan ma'lumot to'plash mumkinligini sinfdoshlaringiz bilan muhokama qiling. Sayohatga o'zingiz bilan nimalarni olib borishingiz kerak? O'ylab ko'ring.



Chet ellik o'rtog'ingizga xat yozib, unga O'zbekiston haqida hikoya qilib bering.